



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 63-69 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>



### TO'QIMACHILIK KORXONALARINI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLOVCHI STRATEGIYANI TANLASH USULLARI

**To'g'onov Ibrohimxo'ja Otaxo'ja o`gli**  
International School of Finance  
Technology and Science  
Menejment kafedrasи assistenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada to'qimachilik korxonalari bardoshligini ta'minlashda samarali strategik yondoshuvlarni tanlash usullarini joylashtirish. O'zbekiston Strategiyasi 2030 da asosiy yo'nalishlardan bir sifatda to'qimachilik ishlab chiqarishda eksport hajmini ishlab chiqarish, ilg'or texnologiyalardan foydalanish va ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish belgilangan. To'qimachilik korxonalarini rivojlanishini ta'minlashda yangi texnika va texnologiyani joriy etish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda jahon bozoriga taklif etilayotgan to'qimachilik mashina va jihozlar g'arbiy Yevropa jumladan Germaniya, Italiya, hamda Yaponiya va Xitoy mashinasozlik firmalariga tegishli bo'lib, ular ish unumдорлиги, xizmat etish muddati, mashinalarga xizmat ko'rsatish va ularga qarash, ta'mirlashda mehnat sarfi darjasи bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Shu sababli alohida to'qimachilik korxonalarini o'ziga xos va mos keladigan raqobatbardosh sifatli mahsulot ishlab chiqarish hamda korxonani rivojlanishini ta'minlovchi strategiyani tanlash hozirgi kun dolzarb masalalari hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** To'qimachilik korxonalari, raqobatbardoshlik, strategiya, innovatsion texnologiyalar, eksport hajmi, yangi texnika va texnologiyalar, moliyaviy barqarorlik, investitsiya, inqirozga qarshi boshqaruв, tashqi va ichki omillar, samaradorlik ko'rsatkichlari, bozor iqtisodi, modernizatsiya, jahon bozorida raqobat, ishlab chiqarish samaradorligi, xalqaro standartlar, mahsulot sifati, korxona rivojlanishi, korxona faoliyati.

#### **Kirish:**

Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida tub islohatlar amalga oshirib borilmoqda. O'zbekistonning jahon iqtisodiy xamjixatligiga integratsiyalashuvi, shuningdek turli xil halqaro tashkilotlar bilan aloqani yo'lga qo'yilishi, to'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish, raqobatlashaoladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishga erishishni taqozo etadi<sup>1</sup>

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2019 yil 16 sentabridagi PQ-4453-sonli "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

To'qimachilik sanoati korxonalarining o'ziga xos tashkiliy xususiyatlaridan biri mehnat buyumlarini xom ashyodan tayyor mahsulotga aylanishida, mo'ljallangan texnologik jarayon bo'yicha mo'ljallangan o'timlardan mashinalardan qayta ishlanishini shart, shu sababli korxona rivojlanishini ta'minlovchi strategiyani tanlashda alohida joriy etilayotgan mashinani emas, balki butun texnologik jarayonni samaradorligi aniqlashni taqozo etadi.

Bunday tadbirni innovatsion faoliyat deb qabul qilsak, tashkilot innovatsion faoliyatini yangilikni o'zi ishlab chiqadi yoki sotib olgan bo'lishi mumkin.

To'qimachilik korxonalarini rivojlanishini ta'minlovchi strategiyani tanlashda tanlangan strategiyani muqobil variantlardan yuqori samara beradigan variantini iqtisodiy ko'rsatkichlar natijalari bilan bir qatorda sarflanadigan investitsiyalarni inqirozga uchrashini oldini olish chora-tadbirlarini hisobga olish to'qimachilik korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy jixatdan barqarorligini oshirish va kutilgan natjalarga erishish imkoniyatlarini yaratadi. Yangilanish esa yangilikni tashkilotga joriy etilish natjasida vujudga keladi. Yangilanish sotilmaydi, yangilik yangilanishga aylantirish maqsadida iste'mol etiladi, ya'ni sotib olinadi.

Tashkilotni rivojlanishini ta'minlovchi strategiyani tanlash va uni samardorlik faoliyati iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Bozor iqtisodi sharoitida ko'rsatkichlar tizimi (unifikatsiya) bir xillashtirishni iloji yo'q.

S – Strengths (Kuchli jihatlar)	W – Weaknesses (Zaif jihatlar)
<b>Resurslar:</b>	<b>Texnologiya:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>Yuksak sifatli xom ashyo bazasi (paxta va boshqa tabiiy materiallar).</li> <li>Tajribali ishchi kuchi va to'qimachilik an'analari.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Yadro texnologiyalarining yetishmasligi, ko'plab texnikalar eskirgan.</li> <li>Innovatsion rivojlanish va texnologiyani joriy etishda cheklovlar.</li> </ul>
<b>Infratuzilma:</b>	<b>Moliyaviy muammolar:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>Mamlakatda ishlab chiqarish va logistika infratuzilmasining rivojlanishi.</li> <li>Yengil sanoatni rivojlantirishga davlat ko'magi (2023 Strategiyasi).</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Kichik korxonalarining cheklangan investitsiya imkoniyatlari.</li> <li>Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi qiyinchiliklar.</li> </ul>
<b>Bozor imkoniyatlari:</b>	<b>Kadrlar muammosi:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>Tashqi bozorlarga chiqish va eksport salohiyati.</li> <li>Mahalliy bozorning barqaror talabi.</li> </ul>	Zamonaviy texnologiyalar bilan ishslash malakasiga ega kadrlar yetishmasligi

O – Opportunities (Imkoniyatlar):	T – Threats (Xatarlar)
<p><b>Xalqaro bozorlar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Global bozor talabi yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni eksport qilish imkoniyati.</li> <li>• Jahonning ilg'or texnologik ishlab chiqarish tarmoqlari bilan hamkorlik qilish.</li> </ul> <p><b>Davlat qo'llab-quvvatlashi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Davlat tomonidan subsidiyalar va imtiyozlar taqdim etilishi.</li> <li>• "O'zbekiston Strategiyasi 2030" doirasida rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish.</li> </ul> <p><b>Innovatsiyalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Germaniya, Yaponiya, Xitoy kabi ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish.</li> <li>• Mahsulotlar assortimentini kengaytirish va diversifikatsiya qilish.</li> </ul>	<p><b>Raqobat:</b> Xalqaro to'qimachilik bozoridagi kuchli raqobat (Xitoy, Hindiston kabi yirik ishlab chiqaruvchilar).</p> <p><b>Iqtisodiy muhit:</b> Global iqtisodiy inqiroz va pandemiya oqibatlari.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Valyuta kurslarining o'zgarishi va inflatsiya.</li> </ul> <p><b>Texnologik qarzdorlik:</b> Innovatsion texnologiyalarning yuqori narxlari va ularga erishishdagi qiyinchiliklar.</p> <p><b>Ekologik talablar:</b> Jahon standartlariga mos ekologik ishlab chiqarish talablarini bajarishdagi murakkabliklar.</p>

**1-Jadval.** To'qimachilik korxonalarini raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategiyani tanlash usullari mavzusida **SWOT** tahlili.

Har bir investor tashkilotni rivojlanishini ta'minlovchi strategiyani tanlashda uning samaradorlik ko'rsatkichlar tizimiini, mutaxassislarning o'z malakasi, loyihaga qo'yiladigan alohida talablar, ko'zlangan maqsadga binoan belgilaydi<sup>2</sup>.

Bozor mexanizmini samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy sharti-bozordan inqirozga uchragan ishbilarmonlarni chetlashtirishdir. Ammo inqirozga uchrashni oldini olish, ularni ravnaqi va rivojlanishini ta'minlash muhim va qiyindir.

Inqirozga qarshi boshqarish yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan, tadbirlar tizimini ishlab chiqishdan iboratdir.

A.P. Gradov fikricha inqirozga qarshi boshqarish – bu:

-mikro va makromuhit holatini tahlili va firmaning rivojlantiradigan missiyasini tanlash;

<sup>2</sup> Kotler F. Marketing-menedejment: Ekspress-kurs / Per. s angl. pod red. Y.N.Kapturevskogo. -SPb.: Piter, 2005. -800 s.

-kirizismi vujudga kelitadigan holatni iqtisodiy mexanizmni anglash, firmani inqirozga uchrashini anglatuvchi «bo'sh singlalarini» aniqlash maqsadida tashqi va ichki muhit tizimini tashkil etish;

-firmani faoliyat ko'rsataolmasligini barataraf etuvchi strategiyani ishlab chiqish va uning faoliyatini strategik kontroling-nazorat qilish;

-firmani inqirozga uchrashi mumkinligini aniqlashda, operativ baholash va moliyaviy faoliyatini tahlili;

-firmani inqirozga uchrayotgan holati va inqirozdan chiqish siyosatini ishlab chiqish;

-ishbilarmonlik faoliyatidagi xavfni doimiy hisobga olish va uni kamaytirish tadbirlarini ishlab chiqish.

Tashkilotni inqirozga uchrashi ichki va tashqi omillarning baravar ta'sirida vujudda keladi, ammo ularni ulushi har xil bo'lishi mumkin. Iqtisodiy va siyosiy barqaror tizimli rivojlangan mamlakatlarda inqirozga uchragan korxonalarni  $\frac{1}{3}$  qismi tashqi omillar va  $\frac{2}{3}$  qismi ichki omillar hisobiga vujudga kelgan.

Tashqi muhit omillari xalqaro va milliy bo'lishi mumkin. Kichik firmalarni inqirozga uchraganlari 90% esa ularning rahbarlarini tajribasizligi soha bo'yicha bilimsizligi tufayli, bozor sharoitiga moslashaolmaganligi tufayli bo'lgan.

Firmaning moliyaviy holatlarini yomonlarshishini doimiy ravishda nazorat qilib turulsa u yoki bu salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va uni barataraf etish yoki ta'sirini kamaytirish choralarini ko'rish mumkin. Bu omillar absolyut kuchga ega emas albatta, shuning uchun korxona xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlar bilan bir tahlil etish kerak.

Jahon amaliyoti shuni isbotladiki yuqorida qo'yilgan maqsad va vazifalar quyidagi inqirozga qarshi boshqarishni asosiy prinsiplariga rioya qilingandagina muvaffaqiyat qozonishi mumkin:<sup>3</sup>

-korxonaning inqirozga uchraganda yoki to'lov qobiliyati yo'qolganda hamma xo'jalik subyektlarini barqaror va ishonchli o'zaro munosabatlarini o'rnatish;

-majburiyatlarni bajarilishi, qarz bergenlarning qarzlarini qaytarish imkoniyatini topish, o'z faoliyatini tiklash;

-biznesni tiklash chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

-qarzdorlar oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun moliyaviy ishlarni to'g'rilash mexanizmini tashkil qilish;

-ishonchli xamkorlarni tijrat va xuquqiy tizimlarini rag'batlantirish va moliyaviy ehtiyojarini hal etish taxtishini tadbirlarini ishlab chiqish;

-korxonani parchalanib ketish jarayonini tezlashtiruvchi qiyinchiliklarni va ehtiyojni kamayishi, xuquqiy va administrativ tizimlarni chegaralash;

-imkoniyat boricha kelajagi barkamol loyihalarni iqtisodiy qiyinchilikka uchragan bo'lsa ularni saqlab qolish;

-inqirozga uchragan korxonalarni tugatilgan holda inqinrozga qarshi boshqaruvdag'i ishtirokchilarni (qarz beruvchilar, tashkilot xodimlari) manfaatini himoya emuvchi mexanizmni ishlab chiqish va mavjud aktivlarni oqilona taqsimlash;

<sup>3</sup> Yusupov S.SH. "Kuchli raqobat sharoitida O'zbekiston to'qimachilik korxonalari rivojlanish strategiyasining asosiy yo'nalishlari". MonografiY. "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013. -152 bet.

To'qimachilik korxonalarini rivojlanishini ta'minlovchi strategiyani tanlashda tanlangan strategiyani muqobil variantlardan yuqori samara beradigan variantini iqtisodiy ko'rsatkichlar natijalari bilan bir qatorda sarflanadigan investitsiyalarni inqirozga uchrashini oldini olish chora-tadbirlarini hisobga olish kutilgan natijalarga erishish imkoniyatlarini yaratadi.

Hindistonda joylashgan Mordor Intelligence konsalting kompaniyasi, turli sohalar bo'yicha tadqiqot bozor tahlillari va prognozlarini taqdim etadi. Kompaniya asosli qarorlarini qabul qilishda yordam beradigan biznes hisobotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, uning ma'lumotlariga ko'ra Osiyo to'qimachilik bozori tahlili va bozor dinamikasi bo'yicha prognozlar quyidagicha ekan.



**1-Rasm.Manba:** <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/apac-textile-industry>

Ushbu rasmdan ko'rishimiz mumkunki ya'ni Osiyo-Tinch okeani to'qimachilik bozori hajmi 2024 yilda 391,20 milliard dollarga baholanmoqda va 2029 yilga kelib 443,72 milliard dollarga yetishi kutilmoqda va prognoz davrida (2024-2029) CAGR 2,55 foizga o'sadi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida kiyim-kechak va uy jihozlari mahsulotlariga talab ortib borayotgani o'sishning asosiy omillari hisoblanadi.

COVID-19 inqirozi jahon tikuvchilik sanoatida katta zarar va qiyinchiliklarga olib keldi, bu turli xil brendlari, ishlab chiqaruvchilar va ishchilarga ta'sir qildi. Pandemiya kiyim-kechak yetkazib berish zanjirlaridagi o'tkir zaifliklarni va xarid qilish bo'yicha qarorlar yetkazib beruvchi fabrikalar va ularning ishchilariga ta'sirini ochib berdi. Osiyoda global kiyim-kechak ishlab chiqarishning asosiy qismi bilan mintaqqa ta'minot zanjiri orqali yuzaga keladigan salbiy ta'sirlarning oldingi chizig'i bo'lib qolmoqda.

Osiyo mintaqasi ham eng katta, ham eng tez rivojlanayotgan ipak bozoridir. Xom ipakning qulayligi tufayli Xitoy Osiyo-Tinch okeani ipak bozorida yetakchilik qiladi, bu

mintaqaning ipakka bo'lgan talabining taxminan 80% ni tashkil qiladi. Xitoy ham ipak xomashyosi va ipak iplari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda Hindiston, Tailand va O'zbekistondan keyin birinchi o'rinda turadi. Mamlakat dunyodagi yetakchi to'qimachilik eksportchisi bo'lib, jahon to'qimachilik va kiyim-kechak eksportining qariyb 40 foizini tashkil qiladi. 20 000 dan ortiq korxonalar bilan. Mintaqaning o'sib borayotgan iqtisodiyoti, ipakchilik texnologiyasining jadal rivojlanishi va to'qimachilik sanoatida ipakdan foydalanishning ko'payishi natijasida Osiyo-Tinch okeani ipak bozori yanada kengayishi kutilmoqda.

Tailand mato, sport kiyimlari, bolalar kiyimlari, ayollar kiyimlari va kundalik kiyimlarni ishlab chiqaruvchi dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchilardan biri sifatida butun dunyoga mashhur. Bundan tashqari, mamlakatning ajoyib pardozilash, bo'yash va poligrafiya xizmatlari uni dunyodagi eng mashhur to'qimachilik autsorsing yo'nalishlaridan biriga aylantiradi. Tailand hozirda 4500 ta to'qimachilik va tikuvchilik ishlab chiqaruvchilari orqali bir millionga yaqin kishini ish bilan ta'minlamoqda. Bangkok va sharqiy Tailandda va uning atrofida joylashgan ushbu ishlab chiqaruvchilarning aksariyati sun'iy tolali zavodlardan, yigirish va to'qishdan tortib, bo'yash va bosib chiqarishgacha hamma narsani ishlab chiqaradi.

Jahon kiyim-kechak ishlab chiqarishning asosiy qismi Osiyo hissasiga to'g'ri kelganligi sababli, mintaqa ta'minot zanjiri orqali aks ettirilgan salbiy ta'sirlar bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Qiyinchiliklar bilan birga yangi ittifoqlar va sanoatning kelajagi haqida yangicha fikrlash va eng muhimi, uni yanada mustahkam, barqaror va insonga yo'naltirilgan kelajak uchun qanday qayta shakllantirish mumkinligi haqida imkoniyatlar paydo bo'ladi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytsak To'qimachilik sanoati korxonalari uchun raqobatbardoshlikni ta'minlash strategiyasini tanlash zamonaviy bozor sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ta'kidlanganidek, korxonalarning samarali rivojlanishi va barqarorligini ta'minlash uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash dolzarb vazifalardandir.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun korxonalar tashqi va ichki muhitni chuqur tahlil qilish orqali samarali strategiyalarni belgilashlari zarur. Shu bilan birga, strategik qarorlar ishlab chiqishda investitsiyalarning samaradorligi va moliyaviy risklarni boshqarish muhim omil hisoblanadi.

SWOT-tahlil shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoatining kuchli tomonlari – yuqori sifatli xomashyo bazasi, tajribali ishchi kuchi va davlat qo'llab-quvvatlashi bo'lsa, zaif tomonlari – eskirgan texnologiyalar va zamonaviy malakali kadrlarning yetishmasligidir. Ushbu imkoniyat va xatarlarni hisobga olgan holda, innovatsiyalarni joriy etish va global bozorlardagi talabga mos mahsulotlar ishlab chiqarish asosiy vazifalardan biridir.

Inqirozga qarshi boshqaruv tamoyillari asosida strategik boshqaruvni amalga oshirish orqali korxonalar iqtisodiy inqiroz holatlarini bartaraf etish va barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tashkilotlarning muvaffaqiyati ularning innovatsion faoliyatni samarali boshqarishi, resurslarni oqilona taqsimlashi va global bozor talablari bilan uyg'unlashuviga bog'liq.

Umuman olganda, to'qimachilik korxonalarini rivojlantirish strategiyasini tanlashda faqat iqtisodiy samaradorlikni emas, balki texnologik yangilanish va ekologik barqarorlikni ham hisobga olish muhimdir. Bu esa milliy to'qimachilik sanoatini xalqaro miqyosda yuqori mavqega ko'tarishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2019 yil 16 sentabridagi PQ-4453-sonli "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. Kotler F. Marketing-menedjment: Ekspress-kurs / Per. s angl. pod red. Y.N.Kapturevskogo. -SPb.: Piter, 2005. -800 s.
3. Yusupov S.SH. "Kuchli raqobat sharoitida O'zbekiston to'qimachilik korxonalari rivojlanish strategiyasining asosiy yo'nalishlari". MonografiY. "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013. -152 bet.
4. <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/apac-textile-industry>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

